

ISLOM BANKLARINING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI*Sobitxonov Joxongir Zunnurxon o'g'li**Toshkent davlat yuridik universiteti**Biznes huquqi kafedrasi o'qituvchisi**e-mail: sobitxonovjahongir@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom banki tushunchasi va mohiyati, an'anaviy banklardan farqli jihatlari hamda o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, tahlillar natijasi yuzasidan milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Shu bilan birga, fuqarolar hamda tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasida islom moliyasi, xususan, islom banklariga nisbatan shakllanib qolgan noto'g'ri qarashlar va tushunchalarni to'g'irlash, ularda ushbu soha bo'yicha ishonchli fundamental bilimlarni shakllantirish islom banklari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar bazasini ishlab chiqish bilan bir xil ahamiyaga egaligi va ushbu jarayon parallel amalga oshirilishi lozimligiga urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: Islom banki, shari'at, ribo, g'arar, maysir, murobaha, salam, istisna, ijara, muzoraba, mushoraka.

Kirish

Islom banklari islom moliyasining bir qismi bo'lib o'z faoliyatini shari'at qoidalari asosida olib boradi hamda ular tomonidan tuziladigan barcha bitimlarda adolat va tenglikni ta'minlash birlamchi shart hisoblanadi. Ushbu holat "ribo" (sudxo'rlik), "g'arar" (axborot muvozanatining buzilishi oqibatida noaniqlik/mavhumlik paydo bo'lishi, ya'ni shartnoma ishtirokchilaridan biri shartnoma bo'yicha to'liq axborotga ega bo'lmaganligi natijasida katta xatar yoki yo'qotishga kirishini bildiradi) va "maysir" (qimor o'yinlari va spekulyasiya/chayqov amaliyoti)ning taqiqlanganligi hamda pul bilan muomala qilishda yaqqol ko'rinadi.

Yuqoridagi taqiqlardan tashqari, islom banklarining eng muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning aktivlar bilan ta'minlangan bo'lishi shartligidir. Moliyalashtirishning an'anaviy shaklida bank va moliya muassasalari faqat pul birliklari bilan ishlaydilar. Shunga ko'ra, ular uchun tovarlar bilan savdo qilish taqiqlangan. Misol uchun, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasiga muvofiq, banklar bevosita ishlab chiqarish, savdo, sug'urta faoliyati hamda banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishga haqli emas [1].

Islom banklarida esa, pul savdo predmeti sifatida tan olinmaydi, chunki u ichki qiymatga ega emas, u bor-yo'g'i almashinuv vositasi. Islom banklari pul evaziga ichki qiymatga ega biror narsaning ustiga ustama qo'yib sotish evaziga foyda oladi. Shuning uchun ham an'anaviy banklardan farqli ravishda islomda moliyalashtirish aktivlarga asoslangan hisoblanadi.

Material va metodlar

Tahlillar jarayonida tizimli tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy tahlil, mantiqiy, sosiologik, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanilgan holda quyidagi masalalar mazmun-mohiyati ochib berilgan, normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan o'ziga xos jihatlar ko'rsatib berilgan hamda qonunchilikka tegishli takliflar berilgan.

Islom banklari va an'anaviy banklar o'rtasida hech qanday farq yo'qmi? Shunchaki, ular an'anaviy banklarning, ularning sudxo'rlikka asoslangan faoliyatining niqoblangan shaklimi?

Islom banklari shari'at maqsadlariga e'tibor qaratmaydimi hamda foydaga erishish uchun islomiy atama va moliyalashtirish shakllari bilan manipulyasiya qiladimi?

Islom banklari barcha muammolarni hal qiluvchi najotkormi? Ular hayriya tashkilotimi?

Islom banklari an'anaviy banklar kabi foizga pul qarz berishi mumkin bo'lmasa, unda islom banklari qanday daromad olishadi?

Islom banklari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning an'anaviy banklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlardan nimasi bilan farq qiladi?

Tadqiqot natijalari

Islom banklari O'zbekiston uchun yangi institut bo'lganligi sababli odamlarda turli xil savollar hamda noto'g'ri tushunchalar paydo bo'lishi mumkin. Dastlab, ushbu masalalarga aniqlik kiritib olish maqsadga muvofiq.

1. Islom banklari va an'anaviy banklar o'rtasida hech qanday farq yo'qmi? Shunchaki, ular an'anaviy banklarning, ularning sudxo'rlikka asoslangan faoliyatining niqoblangan shaklimi?

Islom banklari ribo (sudxo'rlik) yoki tarkibida g'arar (haddan ziyod noaniqlik) mavjud bo'lgan amaliyotlar bilan, shu jumladan qarz oldi-sotdisi bilan hamda shari'atga to'g'ri kelmaydigan (harom) mahsulotlar savdosi bilan shug'ullanmaydi. Islom shari'ati yuqoridagi amaliyotlar natijasida olingan daromadni odamlar molini botil (nohaq) yo'l bilan yeyish deb hisoblaydi.

Islom banklarining faoliyat doirasi shari'atda taqiqlanmagan sohalarni taqiqlanmagan vositalar orqali moliyalashtirish yoki sarmoya kiritishga asoslanadi.

Bundan tashqari, islom banklari pulning o'zi bilan emas, balki uni tovarga aylantirib, murobaha, ijara, salam kabi moliya bitimlari orqali mijozlarni

moliyalashtirishadi. Demak, islom bank tizimida shartnoma turlari, moliyalashtirish usullari, pul jalb etish va ularni investisiya qilish hamda boshqa amaliyotlari bilan an'anaviy banklardan farq qiladi. Islom banklari foiz evaziga qarz berish va qarz olish bilan shug'ullanmaganligi sababli shartnomalar bilan bog'liq xatarlar an'anaviy banklardagi foizli kredit shartnomalari xatarlaridan tubdan farq qiladi [2, B.40-41].

2. Islom banklari shari'at maqsadlariga e'tibor qaratmaydi hamda foydaga erishish uchun islomiy atama va moliyalashtirish shakllari bilan manipulyasiya qiladimi?

Ma'lumki, shari'at besh narsa, ya'ni din, jon, nasl, aql va mol-mulk himoyasini maqsad qiladi. Islom banklari shulardan biri hisoblanuvchi mol-mulkni muhofaza etish va saqlab qolishni o'zining ustuvor vazifasi deb biladi. Shuningdek, islom banklari halol rizq topishni quyidagilar orqali ta'minlaydi:

taqiqlangan (harom) narsalardan yiroq bo'lgan islom moliya xizmatlarini taqdim etish va shu orqali odamlarni gunohlardan saqlash;

odamlarning uy-joy, avtomashina, maishiy jihozlar va shu kabi narsalarga bo'lgan ehtiyojini shar'iy yo'l bilan qondirish;

odamlarga ularning bo'sh turgan mablag'larini ribo va qimor unsurlaridan xoli vositalar orqali turli loyihalarga investisiya qilishda ko'maklashish;

daromadlari cheklangan insonlarga beriladigan qarzi hasan (foizsiz qarz) berish, zakot ajratish, xayr-ehson qilish, noqonuniy faoliyat doirasida olingan daromadlarni hamda belgilangan to'lovlarini o'z vaqtida qasddan amalga oshirmagan mijozlardan undirilgan jarimalarni xayriyaga yo'naltirish orqali jamiyat rivojiga hissa qo'shish.

Shuningdek, islom banklarining barcha terminologiyasi va moliyalashtirish vositalari islom fiqhiga oid kitoblardan, islom fiqhi akademiyalari fatvo va qarorlaridan, shari'at kuzatuv kyengashlari shar'iy xulosalaridan, AAOIFI (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions) tomonidan tasdiqlangan shar'iy standartlardan olinadi [3, B.41-44].

Yuqoridagi ikkita vaziyatda islom banklariga shubha bilan qaraydigan shaxslar tomonidan ilgari suriladigan qarashlarni muhokama qildik va bunday qarashlar asossizligi aniqlashdi.

Ushbu fikrlarga teskari tarzda islom banklarini xayriya tashkiloti sifatida ko'ruvchi, ularga barcha muammolarning yechimi sifatida qarovchi kishilar ham mavjud.

3. Islom banklari barcha muammolarni hal qiluvchi najotkormi? Ular hayriya tashkilotimi?

Odamlar orasida islom banklari haqida shakllangan noto'g'ri tushunchalardan biri islom dini pul berib foiz olishni, ya'ni riboni butunlay harom qilgan, demak islom banklari hech qanday evazsiz (tekinga) pul berishlari kerak, degan qarash hisoblanadi.

Darhaqiqat, foizga pul (qarz) berish dinimizda qat'iy tanqislangan, demak, agar islom banki qarz bersa va evaziga biror nima olsa u holda bu ribo bo'ladi. Biroq, islom banki qarz bersa va evaziga hech qanday to'lov olmasa, u holda bunday (tijorat nuqtai nazaridan) befoyda amaliyot biror-bir tadbirkorni qiziqitmasligi aniq. Agar islom banklari xayriya tashkiloti sifatida faoliyat yuritishi kerak, deydiganlar bo'lsa, u holda ular buni biroz tasavvur qilib ko'rishsa, xayriyaga olingan pullar qisqa muddatda tugashini va boshqa biror shaxs xayriya qilmaguncha qayta ishlamasligini tushunib yetishadi.

Qayd etish kerakki, islom banklari ham tijorat tashkiloti bo'lib, moliyaviy foyda olish maqsadida tashkil qilingan hisoblanadi. Ularning ham an'anaviy banklarga o'xshab o'z aksiyadorlari, sarmoyadorlari borligini unutmaslik kerak.

4. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi, islom banklari an'anaviy banklar kabi foizga pul qarz berishi mumkin bo'lmasa, unda islom banklari qanday daromad olishadi?

Islom banki bir tarafdin sarmoyadorlarning mablag'larini ishonch va sherikchilik asosida boshqarsa, ikkinchi tarafdin ushbu jalb qilingan mablag'larni jismoniy va yuridik shaxslarning turli tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiradi va shu orqali daromad oladi. Olingan daromad bank aksiyadorlariga ham (dividendlar ko'rinishida), sarmoyadorlariga ham (foyda ko'rinishida), davlatga ham (soliqlar ko'rinishida) va ijtimoiy ko'makka muhtoj insonlarga ham (zakot ko'rinishida) manfaat keltiradi.

Islom banki o'z faoliyatini quyidagi manbalardan moliyalashtiradi:

- 1) O'z aksiyadorlarning mablag'lari hisobidan.
- 2) Qimmatli kog'ozlar (sukuk) chiqarib sotish hisobidan.
- 3) Sarmoya omonatlari qabul qilish hisobidan (mudoraba).
- 4) Ishonch asosidagi omonatlar (vakala) qabul qilish hisobidan.
- 5) Muddatli omonatlar hisobidan.

Islom banki shari'atga nomuvofiq bo'lmagan ba'zi an'anaviy bank xizmatlarini (masalan, pul o'tkazmalari, to'lovlar, valyuta ayirboshlash kabi chakana xizmatlar) ko'rsatish, hamda islom moliya tamoyillariga muvofiq bo'lgan turli moliya bitimlari orqali daromad oladi, jumladan:

- 1) Mol-mulk (aktivlar) oldi-sotdisini moliyalashtirish (masalan murobaha shartnomasi) orqali.
- 2) Ijara (islomiy lizing) amaliyoti orqali.
- 3) Investisiya faoliyati, ya'ni turli korxonalariga to'g'ridan-to'g'ri sarmoya kiritish orqali (mushoraka).
- 4) Yirik loyihalarni, masalan, qurilish bilan bog'liq loyihalarni istisna shartnomasi orqali moliyalashtirish.

5) Qishlok xo'jaligi sohasidagi loyihalarini moliyalashtirish orqali (salam shartnomasi).

6) Boshqa turdagi moliya bitimlari orqali (masalan, turli islom moliya maxsulotlari yig'indisidan iborat murakkab mahsulotlarni qo'llash orqali moliyalashtirish) [4].

Ta'kidlash joizki, islom banklari ham an'anaviy banklar kabi o'z faoliyatini ma'lum turdagi shartnoma va bitimlarni tuzish orqali amalga oshiradi. Qur'oni Karimda Alloh ta'olo shunday marhamat qiladi:

“Ey, iymon keltirganlar! Ahdnomalarga vafo qiling!” (“Moida” surasi 1-oyat) Qur'oni Karimning ushbu oyati Islomda shartnomalar uchun asos deyish mumkin. Shartnoma arab tilida “aqd” deb nomlanadi, bu “bog'lash”, “tugun” yoki “qo'shilish” degan ma'noni anglatadi. Islomda shartnomalarga alohida ahamiyat qaratiladi, shuning uchun ham moliya sohasidagi barcha shartnomalar shari'at qoidalari asosida tuzilishi lozim.

O'z navbatida, shartnoma shari'atga muvofiq bo'lishi uchun qanday talablarga javob berishi lozim degan savol tug'iladi.

Umuman olganda, har qanday shartnoma shari'atga muvofiq bo'lishi uchun 6 ta asosiy shart mavjud bo'lishi kerak:

1) O'zaro rozilik (konsensus).

Konsensus taraflar o'zaro kelishuvga erishganini bildiradi. Bunda, taraflar shartnoma turi va uning asosiy shartlari bo'yicha o'zaro kelishib olishlari lozim bo'ladi.

2) Layoqatlilik.

Shartnomaga kirishuvchi shaxs shartnoma tuzish huquqiga ega bo'lishi kerak. Voyaga yetmagan shaxs hamda muomalaga layoqatsiz shaxs fuqarolik-huquqiy munosabatga kirishish qobiliyatiga ega emas va shu tufayli ular tomonidan tuzilgan bitimlar haqiqiy hisoblanmaydi.

3) Ikkala tomonning ham shartnoma shartlarini bajara olishi.

Agar bir kishi shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarishi mumkin bo'lmasa, shartnoma bog'lanmaydi. Masalan, daryodagi baliqni sotish mumkin emas, chunki sotuvchi tomon baliq sotilgandan keyin uni xaridorga taqdim etishga qodir emas. Ammo akvariumdagi baliqni sotish joiz, chunki sotuvchida savdo mahsuloti (baliq) bor va uni xaridorga taqdim etish imkoniyati ham bor.

4) Shartnomaning bajarilishi va maqsadi shari'atga mos bo'lishi kerak.

Ribo asosida bitim tuzish shari'atga zid hisoblanadi. Shuningdek, biror-bir kishini mol-mulkini o'g'irlash uchun odam yollash shartnomasi noqonuniy bo'ladi, chunki shartnomaning maqsadi nojoiz [5].

Xulosalar

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekistonda nafaqat islom banklari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish, balki, parallel ravishda aholi va tadbirkorlik sub'yektlari orasida islom moliyasi, islom banklari mohiyati bo'yicha to'g'ri tushunchalarni xosil qilishni targ'ib qilish talab etiladi.

Shuningdek, islom banklarining tashkil etilishi, faoliyat olib borishi, tugatilishi, nazorat qilinishini, soliqqa tortilishini tartibga solish maqsadida "Markaziy bank to'g'risida"gi, "Bank va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlarga, Soliq kodeksiga o'zgartirish kiritish hamda "Islom banklari to'g'risida"gi yangi Qonun loyihasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, islom moliyasiga oid shartnomaviy-huquqiy masalalarni tartibga solish, yangi majburiyatlarni asoslarini belgilash maqsadida Fuqarolik kodeksiga o'zgartirish kiritish, shuningdek, "Islom moliyaviy xizmatlari to'g'risida"gi Qonun loyihasini ishlab chiqish taklif etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan "On Banks and Banking"] // www.lex.uz
2. Hamad Farooq Al Shaikh "Frequently asked questions about Islamic banks" First Edition 1440 H-2019 AD, Bahrain Islamic Bank P. 74. www.bisb.com
3. Hamad Farooq Al Shaikh "Frequently asked questions about Islamic banks" First Edition 1440 H-2019 AD, Bahrain Islamic Bank P. 74. www.bisb.com
4. <https://islommoliyasi.uz/uz/beozor-bank/>
5. Bekkin R.I. Islom iqtisodiy modeli va zamon, Toshkent, –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2019. B. 360. [Islamic Economic Model and Time] Bekkin R.I. Tashkent, –Press.: NMIU "Uzbekistan", 2019. P. 360.